

## KESH G'URURI – OQ SAROYNING TARIXI VA BUGUNI

**Xushnud Xolmurodov Iskandarovich**

*Kamoliddin Behzod nomidagi*

*Milliy rassomlik va dizayn instituti*

*San'atshunoslik yo 'alishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsia:** *Oq saroy Shahrisabzda Amir temur tomonidan barpo qilingan me'moriy yodgorlik. Bir vaqlari hashamati va go 'zalligi bilan dong taratgan bu saroyning bugungi kungacha yemirilib, ulkan bezakdor ikki peshtog'i, ikki chekkasida joylashgan baland minorasi va saroy mustahkam poydevorining bir qismigina yetib kelgan. Saroyni qurishda Xorazmlik ustalar bilan bir qatorda, mahalliy va boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan ustalar ham jonbozlik ko'rsatishgan. Oq saroy poydevori g'ishtlariga oltin qumi aralashirilgan, poydevor ancha chuqur bo'lib, bir necha qarlamlardan iborat. Ular saroyning uzoq vaqt mustahkam turishi van am o'tkazmasligiga mo'ljallangan murakkab usullarni mujassamlagan. Saroy peshtog'idagi kufiy usulda bitilgan yozuvlar orasida eronlik mahhur usta Muhammad Yusuf Tabriziy nomi 2 marotaba takrorlab bitilgan. 2002-yilda YUNESKO homiyligida Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlanishi munosabati bilan qayta tamirlandi va saroy birmuncha jozibador ko'rinishga keladi. Bugungi kunda saylgoh deb atalayotgan maydonning ko'rkiga aylandi.*

**Kalit so'zlar:** *Amir Temur, Oq saroy, portal, mikrorelief, Lue Kloviho Gonsales, Kesh, Ko'k gumbaz, Dorut-Saodat.*

**Аннотация:** *Ак сарай – памятник архитектуры, построенный Амиром Темуром в Шахрисабзе. Этот дворец, когда-то славившийся своей роскошью и красотой, до наших дней разрушен, и уцелела лишь часть огромных декоративных фронтонов, высокие башни, расположенные по обоим концам, и прочный фундамент дворца. Наряду с хорезмскими мастерами свое усердие в строительстве дворца проявляли также местные и приезжие мастера из других стран. В кирпичи фундамента Ак сарай подмешан золотой песок, фундамент довольно глубокий и состоит из нескольких слоев. В них воплощены сложные методы, призванные сделать так, чтобы дворец оставался прочным долгое время. Среди кufических надписей на фасаде дворца дважды повторяется имя известного иранского мастера Мухаммада Юсуфа Табризи. В 2002 году под эгидой ЮНЕСКО, в связи с празднованием 2700-летия города Шахрисабз, дворец был отремонтирован и выглядит достаточно привлекательно. Сегодня это стало украшением поля, которое называют детской площадкой.*

**Ключевые слова:** *Амир Темур, Ак сарай, портал, микрорельеф, Луэ Кловиho Гонсалес, Кеш, Кук гумбаз, Дарут-Саодат.*

## KIRISH

Ona zaminimizda Buyuk ajdodlarimizdan me'ros qolgan madaniy va me'moriy obyektlar talaygina. Yurtimiz o'tmishidan kelajak avlodadga so'zlovchi ushbu yodgorliklar ne-ne talofatlarga bardosh berib, asrlar silsilasiga guvoh bo'lib kelmoqda. Ayniqsa buyuk Sohibqiron davrida bunyod etilgan me'morchilik durdonalari salobati, serjiloligi, insoniyat taraqqiyotida tutgan beqiyos o'rni va bugungi kungacha vatanimiz g'ururi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shonli tariximiz asoschisi, sarkarda, cheksiz markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi, aqil-zakovatda tengsiz bo'lga buyuk faxrimiz Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Kesh hozrgi Shahrisabz yaqinidagi Xo'ja Ilg'or (Yakkabog') qishlog'ida tavallud topgan. Rivoyatlarga ko'ra, u qo'lida qip-qizil qon bo'lagi bilan, sochlari esa oppoq holatda tug'ilgan, bu kabi rivoyat Chingizxon haqida ham aytilgan. Temurning otasi amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan hisoblanib, Movarounnahrda yuksak obro'-e'tiborga molik, nufuzli ziyolilardan bo'lgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar ularga qarashli mulk hisoblangan.

Sarxadi cheksiz zaminni egallagan buyuk sarkarda Amir Temur bunyodkorlik sohasida misilsiz durdonalar barpo etgan. Har-bir bosib olingan joy memorchiligi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Uning karami ila Masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlar va katta-katta binolar qad rostlay boshlagan. Har qanday g'alaba me'morchilikda abadiylashishi odatiy holga aylanib qolgan. Quruvchilik faoliyatida Amir Temur ma'lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan. U qurdirgan inshootlar saltanatining kuch-qudratini ko'rsatib berishi oliy maqsadlardan biri bo'lgan.

Kesh g'ururi – Oq saroyning tarixi va buguni. Shu kabi bugungi kungacha maftunkorligi ila ayohatchilar va yurtimiz mehmonlarni o'z bag'riga chorlab kelayotgan Oq saroy me'moriy yodgorligi hisoblanadi. Oq saroy — Temur tug'ilgan yurt Shaxrisabzda 1380 – 1404- yillar oralig'ida Amir Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan saroy bo'lib, Shaharning shimoliy sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Bir zamonlar o'z davrining muhtasham, xashamatli va salobatli bo'lgan ushbu majmuaning bugungi kungacha saqlanib qolgan qismi ulkan peshtog'ining ikki chekkasidagi minorasi hamda saroy poydevorining bir qismigina saqlanib qolgan. Oq saroyning bugungi ko'rinishi ham salobatli va o'zgacha jozibalidir. Ushbu go'zallikka saroy g'ishtlarning yaxlit bo'lib ko'rinishini ta'minlash maqsadida, old tomoni va shimoliy qism devorlari yuzasini sirkor parchinlar bilan bir maromda ishlanganligi natijasida erishilgan. Peshtoq qismidagi ravoqning eni 22,5 metr, balandligi 40 metr, saroyning umumiy balandligi esa 50 metrdan oshadi deydi tarixchi olimlar va san'atshunoslar. Peshtoq minorasi ichki qismidagi aylanma shaklda qurilgan zinalari orqali saroy tepasiga ko'tarilish mumkin bo'lgan.

Oq saroyning dastlabgi ko'rinishi va holati haqida faqatgina yozma manbalarga asoslangan holda fikr yuritish joizdir. 20 yil davomida qad ko'targan bu saroy to'g'risida Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha fikrlarni aytadi: "Temur ishga yaroqli bo'lganlarning

barchasini Xorazmdan Movarounnahrğa tomon ko'chirish uchun buyruq berdi... Xorazmlik ustalar baland va salobatli saroyni barpo etishdi, hozirda u Oq saroy nomi bilan mashhur". 1404-yil 29-avgustda Ispaniyalik elchi Klavixo saroyni ko'zdan kechirganda o'z kundaligiga u hali hamon qurib bitkazilmaganligini, ba'zi qismlarining koshinlari va bezak ishlari tugallanmaganligi haqida yozadi. Shunday bo'lsada, naqadar hayratlanganligi va nsaroyning nihoyatda go'zalligini ham yozadi. Saroyni qurishda Xorazmlik ustalar bilan bir qatorda, mahalliy va boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan ustalar ham jonbozlik ko'rsatishgan. Oq saroy poydevori g'ishtlariga oltin qumi aralashirilgan, poydevor ancha chuqur bo'lib, bir necha qarlamlardan iborat. Ular saroyning uzoq vaqt mustahkam turishi van am o'tkazmasligiga mo'ljallangan murakkab usullarni mujassamlagan. Saroy peshtog'idagi kufiy usulda bitilgan yozuvlar orasida eronlik mahhur usta Muhammad Yusuf Tabriziy nomi 2 marotaba takrorlab bitilgan.

Shahrisabzda saroyning qurilishi talay vaqt, chorak asrdan ortiqroq davom etdi. Oq saroyning maydoni kattaligi bilan hayratlanarli darajada bo'lib: mikrorelefdan rekonstruksiya qilingan faqat bitta kata asosiy hovlining kengligi 120-125 metr, uzunligi 240-250 metr edi. XV—XVI asrlarda mikrorelefnig jiddiy talofati natijasida boshqa hovlining o'lchamlari hamda hovlining tashqi perimetrini tiklashni iloji bo'lmadi. Saroyning saqlanib qolgan qismlarining nisbatlarini hisoblash natijalari asosiy portal balandligi 70 metrga yetganligidan dalolat beradi. Oq saroyning asosiy portal qismi shimolga, ya'ni Temuriylar poytaxti Samarqandga qaragan. Bir xil rangda jilolangan g'ishtlarga nisbatan yirik geometrik va epigrafik naqshlar tushirilgan g'ishtlar e'tiborni jalb etgan. Saroy enteryerida asosan to'q va och ko'k ranglar ustunlik qiladi. Bezaklarda mozaikalardan foydalanish tufayli portalga yanayam joziba baxsh etgan. Ranglarning o'ziga xos yumshoqlik hamda sirlilik hissini berishi to'g'ri va o'z o'rnida foydalanilganidandir. Nozik ishlangan o'simliksimon bezaklari hamda Qur'ondan keltirilgan oyatlar xattotlik yozuvlarini alohida e'tiborga molik.

Yetti xil (haft rangi) rangdagi murakkab naqshlar bilan bezatilgan Oq saroy peshtoqida "Sulton Allohning yerdagi soyasidir" mazmunidagi yozuvlar keltirilgan. Saroy peshtoq ustunining old tarafida, cho'zilgan oltiburchak shakliga ega arab tilida "Adolat—davlat asosi va hukmdorlarning shioridir" deya olti marotaba takrorlab yozilgan. Oq saroyning old qismidagi cho'zilgan peshtoq qismida arab tilining "kufiy" yozuv uslubida va tilla suvi yugurtirilgan matnda shunday mazmundagi yozuvlar bitilgan: "Podsholarning so'zi so'zlar ichida podshohdir". Shuningdek, "Bizning kuch-qudratimizga shubha qilsangiz biz qurgan imoratlarga boqing", "Oqil o'z amaliga suyanadi, johil orzu-umidiga" kabi hikmatli so'zlar keltirilgan.

Oq saroyga tashrif buyurgan elchi Klavixo Gonsalening yozgan ma'lumotlariga ko'ra, "bu saroyning juda uzun kirish eshigi va juda baland portali bo'lib, kiraverishda o'ng va chap tomonda g'ishtdan ishlangan arkalar mavjud bo'lgan. Arkalarning ostida bir qancha xonalar mavjud bo'lib, ularning ichidagi pollar koshinkor bilan qoplangan. Xonaning

orqasida esa katta hovli bo'lib, uning atrofi bejirim bezatilgan galereyalar bilan o'ralgan hamda ushbu hovlining poliga oppoq toshlar yotqizilgan edi. Ichki hovlining kengligi taxminan 300 qadam bo'lib, juda baland va keng eshikli, mohirona tilla koshinlar bilan bezatilgan katta uyga olib borardi. Saroy hovlisida va tashqi qismida ko'plab manzarali hamda mevali daraxtlardan iborat bog' mavjud bo'lgan. Bundan tashqari ko'plab hovuzlar va maysazorlar ham bog' ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan. Bog' maydoni shunchalik katta ediki, ko'plab odamlar yozda daraxtlar soyasida va suv bo'yida o'tirib tinch-osoyishta dam olishlari uchun ajoyib muhitni namoyon etgan.

Yozma manbalarga qaraganda, Oq saroy turar joy hamda jamoat binosi sifatida barpo etilib, uning xonalari hovli atrofida joylashgan bo'lgan. Bobur Mirzo tomonidan qoldirilgan ma'lumotlariga ko'ra, saroy hovlisi o'rtasida kata hovuz, to'rida esa gumbazli katta xona — ya'ni devonxona, unung yonlarida saroy ayonlari va maslahatchilari uchun kichik-kichik xonalar, hashamdor ravoqli bostirmalar, ichki tomonida haram hamda amir uchun xona joylashgan. Devonxonaning peshtoq qismida arslon va quyosh tasviri va Temur davlatining ramzi 3 halqa tasvirli nishoni bo'lgan. Gumbazning ichi hamda baraban qismlariga, saroy burchaklaridagi minoralarga koshin va g'ishtlardan qalqon ko'rinishidagi bezaklar, girih naqshlar keng qo'llanilgan. Ushbu naqsh va bezaklar silliqlangan g'isht hamda feruza rangli sirkor parchinlardan shungdek bezak ichlarida yozilgan kufiy xatlar asosi yo'g'on ko'k belbog'simon butun bir kompozitsiyani tashkil qilgan. Saroyning devorlaridagi turli ranglarning o'ziga xos jilosi, falsafiy va diniy mavzudagi, kufiy, suls yozuvlari va shu bilan hamohang tarzda koshinkori be-zaklar, islimiy (o'simliksimon), girih (geometrik) naqshlarning o'zaro bir-biri bilan uyg'unligi natijasida inshoatga ajoyib va o'zgacha sehr, mazmun baxsh etgan. Undagi ranglarning oy shulasida jilo taratib, aks qaytarib va oqarib ko'rinishi natijasida bino Oqsaroy deb nom olgan.

Ushu saroyning o'ziga xos va boshqa me'morchilik inshoatlarida uchramagan xususiyatlaridan biri uning tom tepasida ishlangan hovuzi hisoblanadi. Murakkab yechimga ega bu hovuzni to'ldirish uchun suvni baland dovonlardan bo'lgan Taxtaqoracha dovonidan mustahkam qo'rg'oshin quvurlar yordamida olib kelilgan hamda saroy tepsidan sharshara hosil qilinib, pastga tushirish natijasida ajoyib landsharf dizayni hamda manzara yuzaga kelgan.

Istiqlolimiz sharofatida olib borilayotgan davlatimiz islohatlari, ayniqsa, tariximizga bo'lgan munosabat, madaniy merosni aslab avaylash va turizm sohaini yanada rivojlantirish borasidagi ishlar barchani birdek quvontiradi. Xalqimizning bunga bo'lgan ijobiy munosabatini tashrif buyuruvchi sayyohlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Shahrisabzdagi Oq saroyini buzilishi to'g'risida ham shu kabi noaniqliklar mavjud. Saroy qanday vayron etilgan? Temuriylar davrida Shahrikesh ham poytaxt Samarqand singari sulolalarning ko'plab janglariga guvoh bo'lgan. Shahrisabz hamda Oq saroy temuriylar uchun shonli va shu bilan birga qiyinchilik davrlarda ham poytaxtga yaqin bo'lgan boshpana vazifasini o'tagan. Shunday qilib, XVI asr oxirlarida ikki yerik sulola – temuriylar hamda

shayboniylarning o'zaro janglari, tarixning boshqa davrlarida bo'lgani kabi me'morchilik inshootlari kata talofat ko'rdi. Ammo Oq saroyshunchalik mustahkamligidan unga o'sha davrning qurollari bilan kata talofat yetkazish ham anchayin mushkul bo'lgan. N.A.Maevning 1875-yilda bosilgan "Buxoro xonligi ocherki" asarida "Temurning hashamatli Oq saroyi Buxoroning shu davrdagi barcha imoratlari singari, xarobalardan iborat. Shunga qaramasdan, bu vayrona hozir ham o'zining Benazir go'zalligi bilan rom etadi. Janubiy tarafdin gumbaz qoldiqlari yaqqol bilinib turadi, vaqtida imorat bezagi bo'lgan ushbu gumbazvhozrda nuragan bo'lib, undan koshinlar va yozuvlar bilan bezatilgan ikki devor saqlanib qolgan".

Ushbu jumalardan bilishimiz mumkinki, Oq saroy chinakamiga tashqi tasirlar bo'lmaganda, xaroba holatga keladigan saroy inshoot emas edi. Buning ustiga yana oradan qariyb 50 yil o'tigach, 1920-yil 24-dekabrda sovet tuzumiga qarshi umumxalq qo'zg'olonini bostirish vaqtida Benben degan kimsa tomonidan Oq saroy to'pga tutilgani aytiladi. Saroy sovetlar davrida 74 yil davomida qarovsiz holda qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra 1707-yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon ushbu saroy peshtog'i ostida toj kiyish marosimini o'tkazib, taxtga o'tirgani va Oq saroy peshtoqning o'sha paytda butun ko'rinishda bo'lganligidan dalolat beradi. 1973- 1975 yillarda arxeologik tadqiqotlar va izlanishlar, 1994-1996 yillarda esa konservatsiya ishlari olib borilgan. Nihoyat istiqloq shamoli esishi natijasida, bizgacha nasib etib saqlangan Oq saroy peshtoqlarining qaddini ko'tarib, 2002-yilda YUNESKO homiyligida Shahrisabz shahrining 2700 yilligi nishonlanishi munosabati bilan qayta tamirlandi va saroy birmuncha jozibador ko'rinishga keladi. Bugungi kunda saylgoh deb atalayotgan maydonning ko'rkiga aylandi. Ushbu maydomdan bu saroydan tashqari butun bir ansamblini tashkil etuvchi madrasa, masjidlar ham mavjud. Bulardan biri Ulug'bek Mirzo otasi Shoxrux Mirzo nomidan 1434- 1435 yillarda qurilgan Ko'k gumbaz masjididir. Peshtoq qismida ularning nomlari va qurdirgan vaqti bitilgan tarixiy yozuvlar mavjud. Ko'k koshin bilan qoplangan gumbazi sababli Ko'k gumbaz deb atalgan. Peshtoqning o'ng va chap tomonidagi ustunlari, boloxonasi yaxshi saqlanmagan. Binoga sharqdagi peshtoq orqali kiriladi, Ustunlari va peshtog'ida serjilo handasiy bezaklar ko'p ishlangan, asosiy ravoq va qanoslarida guldor spollardan foydalanilgan. Ko'k va oq rangli bezaklari orasida Qurondan oyatlar keltirilgan. Ko'k gumbaz masjidi Dorut-tilovat ansambli tarkibidagi asosiy jome masjid hisoblanadi.

Dorus-Saodat majmuasi - XIV asrda Temur o'g'li Jahongir vafotidan keyin tez fursatda temuriylar sulolasi xotirasiga qurilgan. Majmua Shahrisabzning janubi-g'arbida joylashgan. U Jahongir, Umat va Temur maqbaralaridan, shuningdek, Hazrati imom masjididan iborat yerik kompleks. XIX – XX asr boshlarida qisman ta'mirlangan. Jahongir Mirzo maqbarasi va Amir Temurga mo'ljallangan yer osti go'rxonasi saqlanib qolgan. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" sida maxsus bino qurdirgan, unda o'z o'g'li Amirzoda Jahongir va amaldorlar hamda buzrukvorlarning daxmalari qo'yilsin deb farmon bergan.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Amir Temur davrida barpo etilgan va dovirig'i olamni tutgan tarixiy obidalarimiz talaygina. Sarxadi cheksiz zaminni egallagan buyuk sarkarda bunyodkorlik sohasida misilsiz durdonalar barpo etgan. Har-bir bosib olingan joy memorchiligi va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan. Uning karami ila saroylar, masjid, madrasa, maqbara, karvon-saroy va hammomlar va katta-katta binolar qad rostlay boshlagan. Har qanday g'alaba me'morchilikda abadiylashishi odatiy holga aylanib qolgan. Quruvchilik faoliyatida Amir Temur ma'lum bir siyosiy maqsadlarga amal qilgan. U qurdirgan inshootlar saltanatining kuch-qudratini ko'rsatib berishi oliy maqsadlardan biri bo'lgan.

Biz so'z yuritgan muhtasham Oq saroy ham shulardan biri edi. Boy tariximiz, buyuk ajdodlarimizdan qolgan har qanday me'roy kelajak avlod va yurtimiz sha'ni uchun buyuk xazinadr. Necha-necha asrlar o'z ta'sirini o'tkazib kelgan bo'lsada, ushbu tarixiy obyektlar hali hamon qaddini tik tutib kelmoqda. Bunga sabab shonli o'tmishimiz asoschilarining aql-zakovati hamda me'morchilik ilmini puxta egallaganlidir. 1380 – 1404 yillar oralig'ida Temurning onasi Takinaxotun xotirasiga bag'ishlab barpo etilgan saroy, Bir zamonlar o'z davrining muhtasham, xashamatli va salobatli saroyi bo'lgan. Ushbu majmuaning bugungi kungacha saqlanib qolgan qismi, ulkan ikki peshtoqi va yon tomondagi minoralari shaharning shimoli sharqidagi bosh maydonga bugungi kunda ham o'zgacha ko'rk bag'ishlab turibdi. Bu kabi yodgorliklarni asrash, o'z vaqtida restavratsia va konservatsialash tadbirlarini olib borish orqali madaniyatimizni yanada mustahkamlashga erishamiz.

## ILLUSTRATSIALAR



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. N.A.Maev “Buxoro xonligi ocherklari” 1879-y.
2. P.Ravshan “Oq saroy tarixi” 2016-y.
3. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oqsaroy\\_\(Shahrisabz\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Oqsaroy_(Shahrisabz))
4. <https://www.academy.uz/uz/news/shahrisabzdagi-oqsaroy-haqida-10-ta-fakt>